

**«COMPLY OR EXPLAIN» («RIOYA QIL YOKI TUSHUNTIR»)
XALQARO TAMOYILI BO‘YICHA AXBOROT**

**O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki
E‘LON QILADI**

O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq bankining Korporativ boshqaruv tizimini baholash yakuni bo‘yicha:

Baholash “Intelligent analytics group” MChJ tomonidan Davlat Raqobat Qo‘mitasi va Korporativ boshqaruv ilmiy-ta’lim markazi tomonidan 2016 yil 25 iyulda tasdiqlangan savolnomaga asosan o‘tkazildi.

Baholash natijasi bo‘yicha 2017 yil 26 maydagi 01/01-89-sonli xulosa va hisobot berildi. Baholash natijasiga ko‘ra yuqorida aytib o‘tilgan savolnoma bo‘yicha Xalq bankining korporativ boshqaruv tizimiga 310 ball (26 foiz) berilgan va “Intelligent analytics group” MChJning yakuniy xulosasiga muvofiq Xalq banki “Comply or explain” (rioya qil yoki tushuntir) xalqaro tamoyiliga asosan qauyidagilarni ma’lum qiladi.

Xalq banki aksiyadorlarning 2016 yil yakuni bo‘yicha umumiy yig‘ilishi qarori bilan bank tomonidan 2017 yil 1 iyuldan boshlab aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish komissiyasining 2015 yil 31 dekabrda 9-sonli yig‘ilishining bayonnomasi bilan tasdiqlangan Korporativ boshqaruv kodeksiga rioya qilish majburiyati qabul qilindi.

Korporativ boshqaruv kodeksi talablariga asosan Aksiyadorlarning huquq va qonuniy manfaatlarini amalga oshirilishini ta’minlash maqsadida bank ustavida bankning ovoz beruvchi aksiyalarining hammasi bo‘lib kamida 1 foiziga egalik qiluvchi aksiyadorlar (aksiyador) tomonidan Kengash yig‘ilishini chaqirish vakolati kiritilish belgilangan. Bank ustavida mazkur vakolat nazarda tutilmagan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq bankining kapitallashuvini yanada ko‘paytirish va investitsion faolligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-986-sonli Qaroriga asosan bank aksiyalarining 51 foiziga - O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va 49 foiziga - Markaziy bank egalik qiladi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat ulushi ustuvor bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2695-sonli Qaroriga asosan Xalq banki strategik aksiyadorlik jamiyati hisoblanib, 100 foiz aksiyalari davlatga tegishliligi belgilangan.